



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 5**

**2026**

**AXSIKENT YODGORLIGIDA “OCHIQ OSMON OSTIDAGI MUZEY”  
KONSEPSIYASI ASOSIDA OLIB BORILAYOTGAN MUZEYLASHTIRISH ISHLARI  
ILMIY TAHLILI (2025–2026 YILLAR)**

**Xayitova Shaxnoza Muhammadjonovna**  
Namangan davlat universiteti, doktorant

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Axsikent arxeologik yodgorligida 2025–2026 yillarda amalga oshirilayotgan “Ochiq osmon ostidagi muzey” konsepsiyasi asosidagi muzeylashtirish ishlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida hukumat qarorlari, arxeologik ekspeditsiyalar natijalari, muzeylashtirish loyihalari va ularning turizm rivojiga ta’siri o’rganildi. Natijalar shuni ko’rsatadiki, Axsikent hududida amalga oshirilayotgan loyiha nafaqat tarixiy merosni saqlash, balki ilmiy tadqiqotlar va madaniy turizm rivoji uchun ham muhim ahamiyatga ega.

**Kalit soʻzlar:** Axsikent,yodgorlik, qadimgi antik davr, poytaxt shahar, moddiy manbalar,qurilish va me’orchilik,madaniyat,muzeylashtirish ishlari,hukumat qarorlari.

**НАУЧНЫЙ АНАЛИЗ МУЗЕЙИЗАЦИОННЫХ РАБОТ, ПРОВЕДЕННЫХ В  
ПАМЯТНИКЕ АКСИКЕНТ, НА ОСНОВЕ КОНЦЕПЦИИ «МУЗЕЙ ПОД  
ОТКРЫТЫМ НЕБОМ» (2025–2026 ГОДЫ)**

**Хайтова Шахноза Мухаммаджоновна**  
Наманганский государственный университет, докторант

**Аннотация**

В данной статье проводится научный анализ музейной работы, выполненной на археологическом объекте Ахсикент в 2025–2026 годах на основе концепции «Музей под открытым небом». В ходе исследования были изучены решения правительства, результаты археологических экспедиций, музейные проекты и их влияние на развитие туризма. Результаты показывают, что реализуемый в районе Ахсикента проект важен не только для сохранения исторического наследия, но и для научных исследований и развития культурного туризма.

**Ключевые слова:** Ахсикент, памятник, древность, столица, материальные ресурсы, строительство и архитектура, культура, музейная работа, решения правительства.

**SCIENTIFIC ANALYSIS OF THE MUSEUMIZATION WORKS UNDERTAKEN IN  
THE AXSIKENT MONUMENT BASED ON THE CONCEPT OF “MUSEUM UNDER  
THE OPEN SKY” (2025–2026)**

**Khayitova Shakhnoza Muhammadjonovna**  
Namangan State University, Doctoral Student

**Abstract**

This article scientifically analyzes the museology work carried out in the Akhsikent archaeological site in 2025–2026 based on the concept of "Open-air Museum". During the study, government decisions, results of archaeological expeditions, museology projects and their impact on tourism development were studied. The results show that the project being implemented in the Akhsikent area is important not only for the preservation of historical heritage, but also for scientific research and the development of cultural tourism.

**Keywords:** Akhsikent, monument, ancient antiquity, capital city, material resources, construction and architecture, culture, museum work, government decisions.

O‘zbekiston hududi qadimiy sivilizatsiyalar markazlaridan biri hisoblanadi. Markaziy

Osiyoning qadimiy shaharlari tarixini o‘rganishda Farg‘ona vodiysi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bu hududda joylashgan Axsikent shahri o‘rta asrlarda vodiyning siyosiy markazi sifatida faoliyat yuritgan [1; 36–38-b.].

Yozma manbalarda Axsikent shahri Farg‘ona vodiysining eng muhim tarixiy shaharlaridan biri sifatida tilga olinadi. U o‘rta asrlarda siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaz bo‘lib xizmat qilgan, IX–XII asrlarda esa yirik hunarmandchilik va savdo markazi sifatida e‘tirof etilgan. Arxeologik ma‘lumotlar ham bu fikrni tasdiqlaydi.

So‘nggi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan tarixiy yodgorliklarni saqlash, ilmiy o‘rganish va ularni turizm obyektlariga aylantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Shu nuqtai nazardan, Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanidagi Axsikent yodgorligini ham kompleks arxeologik tadqiq qilish va muzeylashtirish dolzarb ilmiy hamda ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Shu asosda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tashabbuslari bilan Axsikent yodgorligini “Ochiq osmon ostidagi muzey” konsepsiyasi asosida rivojlantirish va turizm maskaniga aylantirish loyihasi ishlab chiqildi [1; 152–154-b.].

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI (Literature Review)**

Axsikent yodgorligi hamda ochiq osmon ostidagi muzeylar konsepsiyasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur yo‘nalish so‘nggi yillarda dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida keng o‘rganilmoqda. O‘zbekistonlik olimlar tomonidan Axsikent yodgorligining tarixiy-geografik o‘rni, arxeologik tadqiqotlari va urbanistik tuzilishi masalalari keng yoritilgan. Xususan, Abdulhamidjon Anarbayev va Boqijon Matboboyevlarning ilmiy ishlarida Axsikentning qadimgi Farg‘ona vodiysidagi siyosiy va iqtisodiy markaz sifatidagi roli asoslab berilgan. Ushbu tadqiqotlarda yodgorlikning moddiy madaniy merosi, mudofaa tizimi va shaharsozlik an‘analari batafsil tahlil qilingan.

Muzeylashtirish va madaniy merosni saqlash masalalari bo‘yicha esa X. Abdullayev, Sh. Pidayev kabi olimlarning ishlari muhim ahamiyatga ega. Ular tomonidan tarixiy obyektlarni saqlash, restavratsiya qilish va muzeylashtirishning nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Ayniqsa, ochiq osmon ostidagi muzeylar konsepsiyasining afzalliklari — obyektlarning autentik muhitda saqlanishi va jonli tarixiy makon sifatida namoyish etilishi alohida ta‘kidlangan.

Xalqaro miqyosda ochiq osmon ostidagi muzeylar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ham mazkur mavzuni chuqurroq anglash imkonini beradi. Skandinaviya davlatlari va Yevropaning boshqa hududlarida tashkil etilgan ochiq muzeylar tajribasi (masalan, Skansen muzeysi) tarixiy merosni saqlash va turizmni rivojlantirishda samarali model sifatida e‘tirof etilgan. Ushbu tajribalar Axsikent yodgorligida amalga oshirilayotgan muzeylashtirish ishlarini takomillashtirish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda raqamlashtirish, 3D modellashtirish va virtual muzeylar yaratish masalalariga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu esa tarixiy yodgorliklarni keng auditoriyaga yetkazish va ularni saqlashning innovatsion usullarini joriy etishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Axsikent yodgorligini “ochiq osmon ostidagi muzey” konsepsiyasi asosida muzeylashtirish masalasi yetarli darajada o‘rganilgan bo‘lsa-da, aynan zamonaviy yondashuvlar va amaliy natijalarni kompleks tahlil qilish hali ham dolzarb ilmiy vazifa bo‘lib qolmoqda. “Ochiq osmon ostidagi muzey” konsepsiyasi tarixiy obyektlarni ularning tabiiy muhitida saqlagan holda ekspozitsiya qilishni nazarda tutadi [14; 3–5-b.]. Bu esa nafaqat ilmiy tadqiqotlar uchun, balki turizmni rivojlantirish va tarixiy merosni ommalashtirish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi — Axsikent yodgorligida olib borilayotgan muzeylashtirish ishlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning samaradorligi va istiqbollarini baholashdan iborat.

#### **TADQIQOT METODOLOGIYASI (Methods)**

Mazkur tadqiqotda kompleks yondashuv asosida bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan:

- **Tarixiy-tahliliy metod** — Axsikent yodgorligining tarixiy rivojlanish bosqichlarini oʻrganishda qoʻllanildi;
  - **Komparativ (taqqoslash) metod** — boshqa ochiq osmon ostidagi muzeylar tajribasi bilan solishtirish orqali amalga oshirildi;
  - **Arxeologik kuzatuv va tavsiflash metodi** — yodgorlik hududidagi mavjud obyektlar va ularning saqlanish holatini oʻrganishda qoʻllanildi;
  - **Interdisiplinar yondashuv** — tarix, arxeologiya, muzeyshunoslik va turizm yoʻnalishlarini integratsiya qilish orqali tadqiqot olib borildi.
- Shuningdek, soʻnggi yillardagi ilmiy maqolalar, arxeologik hisobotlar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi.

#### **NATIJA VA MUHOKAMA (Results)**



Tadqiqot natijalariga koʻra, Axsikent yodgorligida olib borilayotgan muzeylashtirish ishlari quyidagi yoʻnalishlarda amalga oshirilayotganligi aniqlandi:

- **Hududni konservatsiya qilish** — arxeologik topilmalarni saqlab qolish va yemirilishdan himoya qilish ishlari olib borilmoqda;
- **Infratuzilmani rivojlantirish** — sayyohlar uchun yoʻlaklar, axborot stendlari va ekskursiya yoʻnalishlari tashkil etilgan;
- **Ekspozitsion tizimni yaratish** — ochiq osmon ostida tarixiy obyektlar joylashuvi asosida koʻrgazmali muhit shakllantirilgan;
- **Raqamlashtirish jarayonlari** — yodgorlikni virtual formatda namoyish etish boʻyicha dastlabki ishlar boshlangan.

Natijalar shuni koʻrsatadiki, ushbu konsepsiya yodgorlikning tarixiy qiyofasini saqlagan holda uni keng jamoatchilikka taqdim etishda samarali vosita boʻlib xizmat qilmoqda.

Axsikent yodgorligida amalga oshirilayotgan muzeylashtirish ishlari xalqaro tajriba bilan uygʻunlashgan holda olib borilmoqda. Xususan, Yevropa va Osiyodagi ochiq osmon ostidagi muzeylar tajribasi bilan oʻxshash jihatlari mavjud. Biroq quyidagi ayrim muammolar ham kuzatilmoqda:

- tabiiy omillar taʼsirida obyektlarning yemirilishi;
- moliyaviy resurslarning cheklanganligi;
- zamonaviy texnologiyalarning yetarli darajada joriy etilmaganligi.

Shu bilan birga, mazkur konsepsiya hududning turistik salohiyatini oshirish, mahalliy

iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatish va tarixiy merosni asrashda muhim ahamiyatga ega.

Ayni paytda Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanida joylashgan Axsikent arxeologiya merosi obyekti asosida Axsikent turizm klasterini tashkil etish konsepsiyasi ishlab chiqilib, shu asosda mahalliy va xorijiy ekspertlar bilan tegishli ishlar olib borilmoqda. Axsikent yodgorligiga Prezident tashrifidan so'ng ushbu obyektni turizm markaziga aylantirish bo'yicha amaliy ishlar boshlangan edi.

Tadqiqotlar natijasida Axsikent nafaqat tarixiy obida, balki o'zida 15 xil turizm mahsulotini taklif etadigan markaz bo'lish imkoniyatiga egaligi aniqlandi. Ayni damda turist va mehmonlar uchun arxeologik topilmalar, ochiq osmon ostidagi muzeylar majmuasi va uning tarkibida Sirdaryo baliqlari restoranlar tarmog'i, Vodiy noyob qo'lyozmalar kutubxonasi, ziyorat turizmi obyektlari, Chust pichog'i, Axsikent qilichlari ustaxonalari, Qo'qon ipak qog'ozi markazi, Axi kulolchilik ustaxonalari, etno-moda markazi, kamonchilik, chavandozlik va boshqa milliy o'yinlarni o'z ichiga oluvchi etno-sport markazlarini tashkil etish shular jumlasidandir.

Zamonaviy sayyohlarning barchasi smartfondan foydalanishini hisobga olib, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan hamkorlikda turizm mobil ilovalari yaratilmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, "Axsikent" yodgorlik majmuasidagi ishlar so'nggi besh yilda izchil rivojlandi. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 16-oktyabrdagi qarori bilan "Axsikent" arxeologiya merosi obyektni muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasi tashkil etildi.

Namangan viloyati hokimligi 2018-yil bahoridan O'zbekiston Fanlar akademiyasining bir guruh arxeologlarini uzluksiz tadqiqotlar olib borish uchun taklif qildi. 2018-yilning oxiri va 2019-yilning boshlarida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan Axsikent yodgorligining bitta obyektida (VIII) O'zbekistonda birinchi bo'lib "Ochiq osmon ostidagi muzey" tashkil qilindi. 2019-yilning 28-fevral kuni Prezident Axsikentga tashrif buyurib, qilinayotgan ishlarni ma'qulladi va yangi ko'rsatmalar berdi.



Shu asosda tadqiqotlar olib borilib, 5 ta yangi obyekt (VIII A, XI, XVIII, XIX, XXIV) "Ochiq osmon ostidagi muzey"ga tayyorlandi va fundamental tadqiqotlar doirasida muhim kashfiyotlar qilindi. Xususan, birinchi shahriston hududidagi XI va XVIII obyektlarda Qoraxoniylar davriga oid boy-badavlat oilalarga tegishli mahobatli turar joy qoldiqlari ochildi.

Ushbu obyektlarda Farg'ona vodiysida birinchi bo'lib XI-XII asrlarga mansub devoriy rasmlar topildi. Sharqiy rabod hududidagi XXIV obyektida Qoraxoniylar davriga oid pishiq g'ishtlardan qurilgan mahobatli turar joy qoldiqlari topilib, o'rganildi. Hatto binoning tagxonalari ham mayda pishiq g'ishtlar yordamida geometrik shakllar bilan bezatilgan ekan. Ayni paytda

beshta obyektни ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirish ishlari amalga oshirilmoqda.



Prezident Shavkat Mirziyoyev Namanganga tashrifi chog'ida bu hudud mintaqaning o'ziga xos Registoniga aylanishini ta'kidlagan edi. Qadimgi Farg'ona davlatining poytaxti miloddan avvalgi III–II asrlardan to milodiy eraning IX asri o'rtalarigacha Farg'ona (xitoycha "Yuan"), milodiy eraning IX asrining o'rtalaridan XI asrning o'rtalarigacha manbalarda Axsikat, numizmatik materiallarda esa Farg'ona-Axsikat, XI asrning ikkinchi yarmidan mo'g'ullar bosqiniga qadar Axsikat, Umarshayx Mirzo va Bobur Mirzo davrida Aкси, ba'zan Axsikent deb atalgan [3; 35–38-b.].



O'zbekistonning qadimiy shaharlari — Samarqand, Termiz, Urganch, Qarshi, Shahrisabz va Quva singari Axsikat ham mo'g'ullar bosqinidan keyin o'z joyini o'zgartirgan, ya'ni shimoli-g'arb tomonga siljigan. Lekin joyini o'zgartirgani bilan Axsikat boshqa shaharga aylanib qolmagan, u Axsikat shahri sifatida qolgan. Axsikat mo'g'ullar bosqini va XIII asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrda yuz bergan mo'g'ullarga qarshi noroziliklarning bostirilishi davrida butkul vayron etilgan. Bularni tasdiqlovchi arxeologik dalillar mavjud. Xususan, Eski Aкси

yodgorligining 2 ta obyektida (XI, XVIII) ochilgan Qoraxoniylar davriga oid devoriy rasmlar bilan bezatilgan mahobatli turar joylar mo'g'ullar davrida vayron etilgani ochiq-oydin ko'rinib turibdi. Ushbu binolarning qisman poydevorlari, yonib ulgurmagani yog'ochlari va devoriy rasmlarga ega qatlam-qatlam suvoq uyumlari saqlanib qolgan, xolos. Qazishmalar davomida XI–XII asrlarga oid tangalar va XII asrning oxiri — XIII asrning birinchi choragiga taalluqli sopol idishlar topildi. 2019-yilda Axsikatning rabod qismidagi XXIV obyektida ham Qoraxoniylar davriga mansub mahobatli turar joy qoldiqlari topildi [2; 40–43-b.].

Binoning asosiy qismidan uyum-uyum pishiq g'ishtlar qolgan. Lekin pishiq g'ishtlardan qurilgan tagxonalar yaxshi saqlangan [8; 155]. Shuni ta'kidlash joizki, Eski Aкси yodgorligi hududida olib borilgan qazishmalar davomida biron-bir joyda Temuriylar davriga oid arxitektura qoldiqlari topilmadi. Bunday topilmalar 1980-yillarda Yakka Yigit qishlog'i hududida saqlanib qolgan Yangi Aкси yodgorligida olib borilgan tadqiqotlarda qo'lga kiritilgan. Demak, Eski Aкси va Yangi Aкси toponimlari bitta Axsikat shahrining turli davrlarga oid xarobalariga mahalliy xalq tomonidan berilgan nomlardir.

**XULOSA (Conclusion).** 2023-yildan buyon O'zbekiston Fanlar akademiyasi (avvalgi Milliy arxeologiya markazi) Antropologiya instituti arxeologlari har ikki manzilda qazishma ishlarini olib bormoqdalar. Bu manzillar tarixiy va ziyorat turizmini yanada rivojlantirishda, Namanganga sayyohlar oqimini ko'paytirishda muhim ahamiyatga ega.

“Ochiq osmon ostidagi muzey” konsepsiyasining Axsikentda qo'llanilishi bir qator ilmiy va amaliy natijalarni ko'rsatmoqda:

Birinchiidan, bu yondashuv tarixiy muhitni buzmasdan, uni tabiiy holatda saqlash imkonini beradi. Bu esa klassik yopiq muzeylardan farqli ravishda autentiklikni ta'minlaydi.

Ikkinchiidan, turizm salohiyati sezilarli darajada oshmoqda. Axsikent hududi nafaqat tarixiy obyekt, balki madaniy-turistik markazga aylanish jarayonidadir.

Uchinchiidan, ayrim muammolar ham mavjud. Masalan, tabiiy eroziya, infratuzilmaning yetarli emasligi va ilmiy rekonstruksiya ishlari sustligi shular jumlasidandir.

Shu sababli xalqaro tajribani joriy etish, jumladan, YUNESKO standartlariga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi [6; 3–7-b.].

Axsikent yodgorligida 2025–2026-yillarda olib borilayotgan muzeylashtirish ishlari “ochiq osmon ostidagi muzey” konsepsiyasining muvaffaqiyatli tatbiq etilayotganini ko'rsatadi. Mazkur yondashuv tarixiy merosni saqlash, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va turizmni kengaytirish uchun samarali vosita hisoblanadi. Kelgusida ushbu loyihani yanada rivojlantirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi: zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, xalqaro ilmiy hamkorlikni kuchaytirish hamda qonunchilik asoslarini takomillashtirish.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Anarbeyev A. Axsikent — arxeologiya parki. — Toshkent, 2023.
2. Anarbeyev A. Farg'onaning qadimgi shaharlari va ularning Markaziy Osiyo tarixida tutgan o'rni. — Toshkent, 2021.
3. Анарбаев А. Ахсикет — столица древней Ферганы. — Ташкент, 2013.
4. Anarbeyev A. O'zbekistonda ilk davlatchilik va uning o'rganilish tarixidagi ba'zi bir muammolar // O'zbekiston tarixi. — 2004. — № 4. — B. 3–14.
5. Анарбаев А. Города Северной Ферганы в древности и раннем средневековье // ОНУ. — 1994. — № 1–2. — С. 47–51.
6. Анарбаев А. Стратиграфическое изучение Шахристана I городища Эски Акси // ИМКУ. — Вып. 25. — Ташкент, 1990. — С. 71–86 (соавт. О. Иневаткина).
7. Anarbeyev A. XII asrning ikkinchi yarmi – XIII asrning birinchi choragida Axsiket va Samarqand mudofaa istehkomlari // O'zbekiston arxeologiyasi. — Samarqand, 2014. — № 1(8). — B. 70–80.
8. Анарбаев А. Военная казарма средневекового Ахсикента // ИМКУ. — Вып. 33. — Ташкент, 2002. — С. 206–218.

9. Анарбаев А. Жилище раннесредневекового Ахсикента // ИМКУ. — Вып. 34. — Самарканд, 2004. — С. 155–161.
10. Анарбаев А. Средневековое жилище Ахсикента (XI–XII вв.) // ИМКУ. — Вып. 35. — Ташкент, 2006. — С. 220–230.
11. Анарбаев А. Изучение одного из ремесленных кварталов средневекового Ахсикента // ИМКУ. — Вып. 30. — Самарканд, 1999. — С. 57–68.
12. Анарбаев А. Ахсикент в древности и средневековье (итоги и перспективы исследования) // СА. — 1988. — № 11. — С. 171–187.
13. Ablat Xo'jayev. Arxeologik yodgorliklarni raqamlashtirish. — Toshkent, 2022.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi PQ-5150-son qarori. — Toshkent, 2021. — URL: <https://lex.uz/docs/-5465593>
15. Madaniy meros haftaligi doirasida xalqaro kongress ish boshladi // O'zbekiston Respublikasi hukumat portal. — URL: <https://gov.uz/uz/news/view/23808>
16. “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun.